Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLİYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В B2B- И B2C-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLİYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLİYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQQA IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIJ TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARINING KUHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	



SMART TEHNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQUARISHGA TA'SIRI

Axmedova Nafisa Amiriddin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD)

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-0669-2347>

E-mail: n.akhmedova@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy smart texnologiyalarning tutgan o'rni va ularning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqotda oziq-ovqat sanoatida internet texnologiyalari, robototexnika, nanotexnologiyalar, 3D bosib chiqarish, clean tech, blokcheyn hamda sun'iy intellektdan foydalanishning ishlab chiqarish samaradorligi va sifat nazoratiga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimiz sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, smart texnologiya, import, eksport, blokcheyn, sun'iy intellekt, buyumlar interneti, nanotexnologiya, oziq-ovqat mahsulotlari, robototexnika, robotizatsiya, sanoat, texnologiya, karbon, o'simlik, alternativ oqsil, go'sht mahsulotlari, innovatsion texnologiya, kultivatsiya, rivojlanish, raqamlashtirish, sifat nazorati, pasterizatsiya, sterilizatsiya.

Abstract. This article analyzes the role of modern smart technologies in ensuring food security and their impact on the development of food production. The study examines the application of innovative technologies such as the internet, robotics, nanotechnology, 3D printing, clean technologies, blockchain, and artificial intelligence in the food industry, emphasizing their contribution to production efficiency and quality control. In addition, the paper highlights the importance of digitalization and technological innovation in strengthening food security in the national context.

Key words: agriculture, smart technologies, import, export, blockchain, artificial intelligence, internet of things, nanotechnology, food products, robotics, robotization, industry, technology, carbon, plant, alternative protein, meat products, innovative technologies, cultivation, development, digitalization, quality control, pasteurization, sterilization.

Аннотация. В статье анализируется влияние современных интеллектуальных технологий на обеспечение продовольственной безопасности и развитие производства продуктов питания. Рассматривается применение инновационных технологий, таких как интернет, робототехника, нанотехнологии, 3D-печать, чистые технологии, блокчейн и искусственный интеллект, а также их роль в повышении эффективности производства и контроле качества. Особое внимание уделено вопросам цифровизации и внедрения инновационных технологий в пищевой промышленности в условиях национальной экономики.

Ключевые слова: сельское хозяйство, интеллектуальные технологии, импорт, экспорт, блокчейн, искусственный интеллект, интернет вещей, нанотехнологии, продукты питания, робототехника, роботизация, промышленность, технологии, углерод, растение, альтернативный белок, мясные продукты, инновационные технологии, культивация, развитие, цифровизация, контроль качества, пастеризация, стерилизация.

KIRISH

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida jahon xo'jaligi rivojlanishining yangi yo'nalishlari shakllanmoqda. O'zbekiston qishloq xo'jaligida ushbu innovatsion texnologiyalardan foydalanishni faollashtirish zarur. Ushbu masalalarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022–2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-120-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmonida alohida e'tibor qaratilgan. Iqtisodiy rivojlanishning innovatsion yo'lga o'tish



nafaqat O'zbekiston iqtisodiyotining qishloq xo'jaligi tarmog'ida to'planib qolgan muammolarni bartaraf etish, balki ushbu tarmoq oldida turgan asosiy vazifalarni samarali hal etish zarurati bilan ham bog'liqdir. XXI asrda insoniyat oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning keskin ortishi, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning cheklanganligi kabi global muammolar bilan yuzlashmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilga borib dunyo aholisi 9,7 milliarddan oshadi, bu esa global oziq-ovqat ishlab chiqarishni kamida 60 foizga oshirishni talab qiladi. Shu sababli smart texnologiyalar, ya'ni raqamli, avtomatlashtirilgan, tahliliy va sun'iy intellektga asoslangan yechimlar qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasida tub o'zgarishlarni boshlab bermoqda. Mazkur tadqiqotda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalar orqali kelajakni belgilashi mumkin bo'lgan asosiy tendensiyalar va innovatsiyalarni tahlil etish maqsad qilib olingan. Jumladan, go'sht va sut mahsulotlariga muqobil sifatida o'simlik asosidagi mahsulotlarning ommalashuvi, barqaror va ekologik toza oziq-ovqat tanlovlariga bo'lgan iste'molchilar talabining oshishi muhim tendensiyalardan biri hisoblanadi. Beyond Meat va Impossible Foods kabi kompaniyalar jahon bozorlarida muqobil go'sht mahsulotlarini yetkazib berishda yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Shuningdek, Buyumlar Interneti (IoT) sensorlari va sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan aniq qishloq xo'jaligi yondashuvlari ekinlarni boshqarish jarayonlarini optimallashtirmoqda. Fermerlar va klasterlar sug'orish, o'g'itlash hamda zararkunandalarga qarshi kurashish jarayonlarini yuqori aniqlikda kuzatish va sozlash imkoniyatiga ega bo'lib, bu hosildorlikni oshirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda duch kelinayotgan eng muhim muammolardan biri oziq-ovqat mahsulotlarini barqaror ishlab chiqarish zaruratidir. Tadqiqotlarga ko'ra, 2050-yilga kelib Yer yuzidagi aholi soni 9,8 milliard kishiga yetadi, bu esa qishloq xo'jaligi resurslariga katta bosim o'tkazadi. Shu munosabat bilan barqaror qishloq xo'jaligi usullarini rivojlantirishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Bunday usullarga aniq qishloq xo'jaligi, vertikal dehqonchilik va gidroponika texnologiyalari kiradi. Aniq qishloq xo'jaligi dronlar va sensorlar yordamida resurslardan minimal foydalanish orqali hosildorlikni optimallashtirishni nazarda tutadi. Vertikal dehqonchilik shahar sharoitida ekinlarni qatlamlashtirilgan holda yetishtirish imkonini berib, katta yer maydonlariga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Gidroponika esa tuproqsiz, oziq moddalarga boy suv muhitida o'simliklarni yetishtirishga asoslangan zamonaviy usul bo'lib, ushbu barqaror texnologiyalar qishloq xo'jaligining ekologik barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish masalalarining ilmiy-nazariy asoslari va uni davlat tomonidan tartibga solish vositalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, Per Pinstrup-Andersen oziq-ovqat tizimida davlat siyosatining global, milliy va mahalliy darajadagi rolini asoslab bergan bo'lsa [4], Timothy Lang global oziq-ovqat siyosatida korporatsiyalar va davlatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini tahlil qilgan [5]. C. Peter Timmer oziq-ovqat xavfsizligini iqtisodiy siyosat va bozor muvozanatining natijasi sifatida baholab, ochlikni bartaraf etishning murakkab iqtisodiy omillarini ko'rsatib bergan [6]. M. Swinnen va J. McDermott o'z tadqiqotlarida iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy inqirozlar va oziq-ovqat xavfsizligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni empirik jihatdan asoslagan [7]. Shuningdek, Maximo Torero tomonidan jahon oziq-ovqat tizimi barqarorligi va oziq-ovqat xavfsizligining global iqtisodiy modellari tahlil qilingan [8]. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va rivojlantirish bosqichlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni MDH olimlarining ilmiy ishlarida ham keng yoritilgan. Jumladan, Frolov K.V., Gordeyev A.V. va Maslennikova O.A. tomonidan oziq-ovqat xavfsizligi tizimining shakllanish bosqichlari va uning institutsional asoslari o'rganilgan [9]. Balabanov V.S. va Borisenko E.N. esa oziq-ovqat xavfsizligining xalqaro va ichki jihatlarini tahlil qilib, davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlariga alohida e'tibor qaratgan [10]. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va uni takomillashtirish masalalari milliy iqtisodiyot va agrar sektor rivoji bilan uzviy bog'liq holda o'rganilgan. Abulqosimov H.P. davlatning iqtisodiy xavfsizligi tarkibida oziq-ovqat xavfsizligining o'rnini ilmiy asoslab bergan [11]. Rasulov T.S. oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari va asosiy yo'nalishlarini tizimli ravishda tahlil qilgan [13]. Dusmatov B.O. milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat ishlab chiqarishda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish masalalarini yoritgan [17]. Xo'jageldiyev Ch.P. sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish orqali aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash yo'llarini taklif etgan [14]. Topildiyev S.R. agrar munosabatlarni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish hamda oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini tadqiq etgan [15], [18]. Rustamova I.B. agrar sohada innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqqan [16]. Aliyev Ya.E. esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar bozorni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqot olib borgan [12].

Mazkur ilmiy yondashuvlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining strategik hujjatlari bilan hamohang bo'lib, xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni [1], yangi O'zbekistonning



2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son Farmoni [2] hamda qishloq xo'jaligini 2020–2030-yillarda rivojlantirish strategiyasi bo'yicha PQ-5009-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar bilan uzviy bog'liqdir [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning metodologiyasi ilmiy va tobora ommalashib borayotgan manbalarni tahlil qilishdan boshlab, qiyosiy va mantiqiy tahlil, ketma-ketlik hamda xolislik tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqotda respublikada yangi iqtisodiy siyosat doirasida izchil olib borilayotgan islohotlar, O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish tizimini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, iqtisodiy-statistik tahlil hamda guruhlash usullari qo'llanilib, iqtisodiy tajribalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asos qilib olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oziq-ovqat texnologiyalaridagi yana bir muhim tendensiya o'simlik va alternativ oqsillardan foydalanishning o'sishi hisoblanadi. Tobora ko'proq iste'molchilar vegetarian va vegan parheziga amal qilgani sari, an'anaviy chorva mahsulotlariga va o'simlik alternativalariga bo'lgan talab ortmoqda. Beyond Meat va Impossible Foods kabi kompaniyalar, mazasi va tashqi ko'rinishi haqiqiy go'shtni eslatadigan o'simlikka asoslangan muqobil go'sht go'sht mahsulotlari yaratishda muhim yutuqlarga erishdi. Bundan tashqari, laboratoriyada yetishtirilgan go'shtning rivojlanishi, shuningdek, kultivatsiya qilingan go'sht deb ataladi, chorvachilikning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishda ulkan istiqbollarga ega. Laboratoriyada yetishtirilgan genetik go'sht mahsulotlarining hujayralaridan mushak to'qimasini laboratoriyada yetishtirish orqali ishlab chiqariladi, bu esa an'anaviy chorvachilikni talab qilmaydi. Garchi bu alternativ oqsillar hali rivojlanishning dastlabki bosqichlarida bo'lsa-da, ular chorva mahsulotlarini iste'mol qilish usullarimizda inqilob qilishi mumkin.

Oziq-ovqat sanoatida sun'iy intellekt (SI) va katta ma'lumotlarni tahlil qilishdan foydalanish — e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydigan yana bir muhim tendensiya. SI ulkan hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish uchun ishlatilishi mumkin, bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, iste'molchilarning xatti-harakatlarini prognoz qilish va oziq-ovqat sohasidagi muammolarni yechimlar ishlab chiqish imkonini beradi. Jumladan: sun'iy intellekt asosidagi algoritmlar insonning genetik ma'lumotlarini tahlil qilib, uning aniq oziq-ovqat ehtiyojlariga asoslangan shaxsiy dieta tavsiyalarini taqdim qilishi mumkin. Bundan tashqari, SI oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini oshirish orqali oziq-ovqat kelib chiqishi kasalliklarining tez aniqlanishi va nazorat qilinishiga yordam beradi. Katta hajmdagi oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish shu bilan birga, oziq-ovqat ta'minot zanjirlarini boshqarishda muhim rol o'ynaydi va mahsulotlarning samarali va xavfsiz tarqatilishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, oziq-ovqat texnologiyalari kelajagi oziq-ovqat mahsulotlarini qadoqlash va saqlash sohasidagi yutuqlarni ham o'z ichiga oladi. Oziq-ovqat chiqindilari haqida ortib borayotgan xavotir sharoitida, oziq-ovqat mahsulotlarining foydalanish muddatini uzaytirish va sifatini saqlash uchun innovatsion qadoqlash yechimlari ishlab chiqilmoqda. Masalan, oziq-ovqatning buzilishini aniqlovchi sensorlar kabi aqlli qadoqlash iste'molchilarga oziq-ovqat xavfsiz bo'lmagan paytda ogohlantirish orqali chiqindilarni kamaytirishga yordam berishi mumkin. Shuningdek, yuqori bosim ostida ishlov berish va mikroto'lqinli sterilizatsiya kabi konservalash texnologiyalari yutuqlari sun'iy konservantlarsiz oziq-ovqat mahsulotlarining saqlash muddatini uzaytirishga imkon beradi.

Biroq, shuni ta'kidlash muhimki, bu tendensiyalar va innovatsiyalar katta istiqbolga ega bo'lsa-da, hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar va etnik masalalar ham mavjud. Yangi texnologiyalarning inson salomatligi va atrof-muhitga uzoq muddatli ta'sirini ehtiyotkorlik bilan baholash zarur. Bundan tashqari, ushbu yutuqlarga faqat tanlanganlar emas, barcha uchun kirish imkoniyatini ta'minlash lozim. 2025 yilda oziq-ovqat sanoatidagi 10 ta innovatsion texnologiya Sun'iy intellekt, internet, robototexnika, nanotexnologiyalar va 3D-bosib chiqarish kabi yangi texnologiyalar oziq-ovqat sanoati va ichimlik ishlab chiqaruvchilariga yordam bermoqda. Ular sanoatdagi muammolarni hal qiladi: ishchi kuchining yetishmasligi, mahsulot xavfsizligi masalalari va iste'molchilarning o'zgaruvchan talablarini.

Masalan, sun'iy intellekt va buyumlar interneti yordamida haroratni avtomatik ravishda kuzatish mumkin, bu esa mahsulotlarning xavfsizligi va sifatini ta'minlashga yordam beradi. Restoranolarda taomlarni tayyorlash va yetkazib berish robotlar tomonidan amalga oshiriladi. Shuning uchun soha ishtirokchilari raqobatbardosh bo'lib qolish uchun ushbu texnologiyalardan foydalanishlari kerak. Tahlillarimiz ko'rsatishicha raqamli dehqonchilikni joriy etish orqali tizimda IoT sensorlar yordamida:

- tuproq namligi, harorati va oziqlanish holati aniqlanadi;
- kerakli o'g'it miqdori hisoblanadi;
- suv sarfi va hosildorlik balansi nazorat qilinadi.



Masalan, Isroil va Niderlandiyada tomchilatib sug'orish tizimlari bilan hosildorlik 1,5 baravar oshgan, suv sarfi esa 50 % ga kamaygan. O'zbekistonda "Smart Agro Field" pilot loyihasida shunga o'xshash natijalar kuzatilgan.

1. CleanTech

Oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar atrof-muhitga tushadigan yukni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish maqsadida ekologik toza texnologiyalarni joriy qilmoqda. Ular qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanadi, chiqindilarni energiyaga aylantiradi, ekologik toza qadoqlashni qo'llaydi va suvdan foydalanish tizimlarini optimallashtiradi. Bu energiya sarfini kamaytirish, chiqindilar miqdorini qisqartirish va karbonat angidrid emissiyasini pasaytirishga yordam beradi. Bolgariya kompaniyasi FlavaPulse oziq-ovqat va ichimliklar uchun no'xat oqsilini ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarish jarayonida mexanik saralash qo'llaniladi, bu oqsilda gluten, GMO va allergenlar yo'qligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, no'xat oqsilining barcha xususiyatlari saqlanadi, bu uni universal tarkibiy qismga aylantiradi. FlavaPulse sog'lom va ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini yaratishga imkon beradi.

2. Qo'shma ishlab chiqarish

3D-bosma, yoki qo'shma ishlab chiqarish, individual oziq-ovqat mahsulotlarini aniq va samarali ishlab chiqarishga imkon beradi. Ushbu texnologiya murakkab konstruksiyalarni minimal material sarfi bilan yaratishga yordam beradi, bu sanoatning barqaror rivojlanishga intilishiga mos keladi. Bundan tashqari, 3D-bosma oziq-ovqat mahsulotlarini funksional xususiyatlar bilan, individual ravishda tanlangan oziqlantiruvchi xususiyatlar bilan ishlab chiqarish imkonini beradi. Bu, shaxsiylashtirilgan va sog'liq uchun foydali mahsulotlarga bo'lgan talab ortishi bilan tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Oziq-ovqat sanoatida sof texnologiyalarni qo'llashning amaliy misoli Karbon tutish texnologiyalari oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida ajralib chiqqan CO₂ ni yig'ish va saqlash imkonini beradi. Tozalangan CO₂ gaz bilan to'ldirish yoki sotish uchun qayta ishlatiladi. Bu chiqindilarni kamaytiradi va resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi. Chiqindilarni energiyaga aylantirish texnologiyalari oziq-ovqat chiqindilarini kompost va energiyaga aylantiradi. Bu chiqindixonalarni kamaytiradi, issiqxona gazlari chiqindilarini pasaytiradi va aylanma iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi. Biologik parchalanadigan va qayta ishlanadigan qadoqlash materiallaridan foydalanish an'anaviy plastiklarga bo'lgan bog'liqlikni kamaytiradi. Bu innovatsiyalar qadoqlash chiqindilarini va atrof-muhitga zarar etkazishni kamaytiradi.

3. Buyumlar interneti (IoT)

IoT jismoniy qurilmalar ulanishi bilan oziq-ovqat ta'minot zanjiri bo'ylab ma'lumotlarni real vaqt rejimida to'plash va tahlil qilish imkonini beradi. Bu jarayonlarni yanada samarali, shaffof va barqaror qiladi. Oziq-ovqatni qayta ishlash va tarqatish jarayonlarida IoT asosidagi tizimlar to'liq nazoratni ta'minlaydi, bu esa chiqindilarni kamaytiradi va oziq-ovqat xavfsizligini kafolatlaydi. Sanoat resurslarni boshqarish va barqarorlik muammolari bilan yuzlashayotgani sababli, IoT operatsiyalarni optimallashtirish va iste'molchilarning o'zgaruvchan talablari bilan moslashishga yordam beradi.

4. Nanotexnologiyalar

Nanotexnologiyalar oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi, sifati va barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Nanotexnologiyalar asosida material muhandisligi yangi yechimlarni yaratishga imkon beradi:

- oziq-ovqat xavfsizligini real vaqt rejimida kuzatish uchun nanodatchiklar;
- mahsulotlarning saqlash muddatini uzaytiruvchi nanopaketlash;
- agroximikatlarning samaradorligini oshiruvchi va atrof-muhitga ta'sirini kamaytiruvchi nanotashuvchilar.

5. Sun'iy intellekt

Algoritim mashinalari katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qiladi, ta'minot zanjirlarini va operatsion samaradorlikni yaxshilaydi, shuningdek sifatni nazorat qiladi. Sun'iy intellekt modellari bozor tendensiyalarini oldindan taxmin qiladi, murakkab jarayonlarni avtomatlashtiradi va real vaqtda qaror qabul qilishga yordam beradi. Ular oziq-ovqat xavfsizligi, chiqindilarni utilizatsiya qilish va prognozli texnik xizmat vazifalarini hal qiladi. Sun'iy intellektni integratsiya qilish orqali kompaniyalar talabni aniqroq bashorat qiladi, ishlab chiqarishni optimallashtiradi va operatsion xarajatlarni kamaytiradi, shu bilan birga mahsulotning sifati va xavfsizligini saqlaydi.

6. Ulanish texnologiyalari

Ulanish texnologiyalari, masalan Wi-Fi, 5G, Bluetooth va GPS, oziq-ovqat va ichimliklar sanoatiga yordam beradi. Ular real vaqtda ma'lumot almashinuvini ta'minlaydi, bu esa oziq-ovqat kompaniyalariga yanada ochiq bo'lish va jarayonlarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Kontaktless to'lov tizimlari, buyurtmalarni kuzatish va moslashuvchan raqamli displeylar mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilaydi.

7. Ilg'or robototexnika

Robotizatsiyalashgan tizimlar oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning turli bosqichlarida ishlatiladi: qayta ishlash va qadoqlashdan tortib sifat nazorati va logistika jarayonlarigacha. Ular takroriy vazifalarni bajarish orqali unumdorlikni oshiradi (saralash, kesish, paletlarga joylash). Robotlar shuningdek ishchi kuchi



yetishmasligi muammosini hal qilishga yordam beradi, odamlar uchun qiyin yoki noqulay bo'lgan ishlarni bajaradi. Robototexnika va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish esa ishlab chiqarish liniyalarini real vaqt rejimida nazorat qilish va optimallashtirish imkonini beradi, bu ish samaradorligi va xavfsizligini oshiradi.

8. Kengaytirilgan haqiqat (AR) va virtual haqiqat (VR).

AR va VR oziq-ovqat va ichimliklar sanoatida mijozlarni jalb qilish va xodimlarni o'qitishda yordam beradi. Ushbu texnologiyalar yordamida simulyatorlar yaratish, ma'lumotlarni vizuallashtirish va mahsulotlarni loyihalash mumkin. Bu qarorlar qabul qilish, xarajatlarni kamaytirish va yangi mahsulotlarni tezroq ishlab chiqish hamda obyektlarni boshqarishda yordam beradi.

9. Blokcheyn.

Blokcheyn — bu oziq-ovqat va ichimlik ishlab chiqaruvchi kompaniyalar uchun maxsus tizim. U yetkazib berishning barcha bosqichlarini kuzatib borish va nazorat qilish imkonini beradi: yetkazib beruvchilarni qidirishdan tortib, mahsulotlarni sotishga qadar. Tizim mahsulotlar haqidagi ma'lumotlarni himoya qiladi va ularning sifatini va xavfsizligini tekshirishga yordam beradi. Bu ifloslanish, firibgarlik va soxtalashtirish xavfini kamaytiradi.

10. Katta ma'lumotlar va tahlil.

Katta ma'lumotlar va tahlil tufayli oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish, yetkazib berish va xaridorlarning xatti-harakati haqida ko'p ma'lumotlarni tahlil qilish mumkin. Katta ma'lumotlarga asoslangan talabni prognoz qilish va qarorlar qabul qilish mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Bu esa iste'molchilarning afzalliklari va bozorning yangi tendensiyalarini hisobga olgan holda mahsulotlar yaratishga imkon beradi.

O'zbekiston sharoitida smart texnologiyalardan foydalanish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida qishloq xo'jaligini raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan:

1. Smart Agriculture loyihalari:

- "Agrosug'orish-3.0" dasturi asosida sensorli suv nazorati tizimlari;
- "Agroplatforma.uz" orqali fermerlar uchun onlayn xizmatlar.

2. Raqamli monitoring tizimlari:

- Qishloq xo'jaligi vazirligining "AgroStat" ma'lumotlar bazasi;
- Dronlar yordamida yer kadastrini aniqlashtirish.

3. Smart laboratoriyalar:

- "O'ZAKK" va "Uzstandart" tizimlarida AI asosida ishlovchi oziq-ovqat tahlil laboratoriyalari yo'lga qo'yilgan.

4. Bozor kuzatuv va narx prognozi:

- "AgroMarket Analytics" platformasi orqali onlayn narx kuzatuv.

Fikrimizcha smart texnologiyalar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda inqilobiy rol o'ynamoqda. Ular ishlab chiqarish, qayta ishlash, taqsimot va iste'mol bosqichlarini yagona raqamli ekotizimga birlashtiradi. O'zbekiston uchun bu yo'nalish nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, balki raqobatbardosh, ekologik barqaror va eksportga yo'naltirilgan agroiqtisodiyotni yaratish imkoniyatidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oziq-ovqat texnologiyalarining kelajagi muammo va imkoniyatlarga boy. Yuqorida muhokama qilingan tendensiyalar va innovatsiyalar yaqin yillarda bizni kutayotgan yangi texnologiyalarning faqat kichik bir qismini tashkil etadi. Barqaror va oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlangan kelajak sari intilar ekanmiz, bu yutuqlardan foydalanish muhim, shu bilan birga ularning jamiyat va atrof-muhitga ta'sirini sinchiklab hisobga olish zarur. Texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda, biz oziq-ovqat ishlab chiqarish samarali, barqaror va inklyuziv bo'lgan kelajakni yaratishimiz mumkin. Tadqiqotning asosiy muammolari tahlil qilindi, jumladan: smart texnologiyalar narxining yuqoriligi, internet infratuzilmasining cheklanganligi, mutaxassis kadrlar yetishmasligi, raqamli savodxonlik pastligi; moliyalashtirish mexanizmlarining sustligi bilan izohlanadi. Oziq-ovqat mahsulotlarini pasterizatsiya yoki sterilizatsiya qilish maqsadida yuqori bosimdan foydalanish ham istiqbolli texnologiya sifatida ko'rib chiqildi. Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, oziq-ovqat qadoqlash sohasida ko'plab yangi ishlanmalar mavjud. Innovatsion qadoqlashlar biohal qilinadigan, faol, aqlli yoki qayta ishlatiladigan bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning innovatsion texnologiyalardan foydalanish quyidagi takliflarni:

- Davlat–xususiy sheriklik asosida subsidiyalar joriy etish;
- "Smart Agriculture Center"lar tashkil etish;
- Kadrlar tayyorlashda "Agroinformatika" yo'nalishini rivojlantirish;

Har bir viloyatda smart pilot hududlar yaratish maqsadga muvofiq.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023-yil 11-sentyabrda). "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida: PF-158-son Farmon.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022-yil 28-yanvarda). 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida: PF-60-son Farmon.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021-yil 26-fevralda). O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risida: PQ-5009-son Qaror.
4. Pinstруп-Andersen, P. (2011-yilda). Food policy for developing countries: The role of government in global, national, and local food systems. Cornell University Press.
5. Lang, T. (2015-yilda). Food wars: The global battle for mouths, minds and markets (33–68-betlar). Routledge.
6. Timmer, C. P. (2015-yilda). Food security and scarcity: Why ending hunger is so hard (45–92-betlar). University of Pennsylvania Press.
7. Swinnen, M., & McDermott, J. (2020-yilda). Food security, economic development, and conflict (IFPRI Research Paper, 22–79-betlar). IFPRI.
8. Torero, M. (2023-yilda). The state of food security and nutrition in the world. FAO Annual Report.
9. Frolov, K. V., Gordeev, A. V., & Maslennikova, O. A. (2011-yilda). Oziq-ovqat xavfsizligi (2-qism). Moskva: Bilim.
10. Balabanov, V. S., & Borisenko, E. N. (2012-yilda). Oziq-ovqat xavfsizligi: Xalqaro va ichki jihatlar (22-bet). Moskva: Iqtisodiyot.
11. Abulqosimov, H. P. (2012-yilda). Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. Toshkent: Akademiya.
12. Aliyev, Ya. E. (2020-yilda). Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar bozorni rivojlantirish masalalari. Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali, mart–aprel soni, 198-bet.
13. Rasulov, T. S. (2017-yilda). Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlar va yo'nalishlari. Toshkent: Fan va texnologiya.
14. Xo'jageldiyev, Ch. P. (2022-yilda). Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari unumdorligini oshirishni rag'batlantirish (i.f.d. avtoreferati). Toshkent.
15. Topildiyev, S. R. (2023-yilda). Agrar munosabatlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish (iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi). Toshkent: Tipograff MCHJ.
16. Rustamova, I. B. (2020-yilda). Agrar sohada innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslari (i.f.d. avtoreferati). Toshkent.
17. Dusmatov, B. O. (2022-yilda). Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida agrosanoat ishlab chiqarishda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish (i.f.d. avtoreferati). Toshkent.
18. Topildiyev, S. R. (2023-yilda). XXI asr suv muammosi: O'zbekistonda va Markaziy Osiyoda bartaraf etish yo'llari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 5-son.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
